

**BOSHLANG‘ICH SINIF “O‘QISH KITABI”DAGI MATNLARDA
UCHRAYDIGAN JUFT SO‘ZLARNING LEKSIK-GRAMMATIK
XUSUSIYATLARI**

Ilmiy rahbar: M.A.Hamrayev

Qo‘chqorova Hilola

Nizomiy nomidagi O‘zMPU

Boshlang‘ich va maktabgacha

ta’lim fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Boshlang‘ich sinf O‘qish kitobidagi matnlarda uchraydigan juft so‘zlarning leksik-grammatik xususiyatlari” mavzusiga bag‘ishlangan. Ishda boshlang‘ich ta’lim matnlarida juft so‘zlarning funksiyasi, ularning leksik va grammatik xususiyatlari, shuningdek, o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishidagi roli tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘qish kitobi, juft so‘zlar, nutqiy rivojlanish, nutq, matn, funksiya, leksik xususiyat, grammatik xususiyat.

Annotation: This article is devoted to the topic “Lexical and Grammatical Features of Paired Words Found in the Texts of Primary School Reading Textbooks.” The study analyzes the functions of paired words in primary education texts, their lexical and grammatical characteristics, as well as their role in the speech development of pupils.

Key words: reading textbook, paired words, speech development, speech, text, function, lexical feature, grammatical feature.

Аннотация: Данная статья посвящена теме «Лексико-грамматические особенности парных слов, встречающихся в текстах учебников чтения для начальной школы». В исследовании анализируются функции парных слов в текстах начального образования, их лексические и грамматические особенности, а также их роль в развитии речи учащихся.

Ключевые слова: учебник чтения, парные слова, развитие речи, речь, текст, функция, лексическая особенность, грамматическая особенность.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida “Ona tili” fanining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, so‘z boyligini kengaytirish hamda til birliklaridan ongli va o‘rinli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu jihatdan juft so‘zlar mavzusi boshlang‘ich sinf darsliklarida muhim o‘rin egallaydi. Juft so‘zlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, nutq ifodaliligini kuchaytirish va so‘zlarning ma’no nozikliklarini anglashida samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida grammatik qoidalarni kontekst asosida o‘rgatish o‘quvchilarning lingvistik bilimlarini real hayot bilan bog‘lab, ularning tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Grammatik tizimga ortiqcha urg‘u bermasdan, matn orqali qoidalarni tushuntirish bolalarning tilni o‘zlashtirish jarayonini tabiiy va mazmunli qiladi. O‘quvchilar uchun ishlab chiqilgan darsliklarda kontekst asosida til o‘rgatish usullari samarali tatbiq etilgan bo‘lib, ayniqsa, rasmi hikoyalar va muhokama savollari orqali o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalari shakllantiriladi. Matndagi tasvirlar, hayvonot bog‘i haqidagi ma’lumotlar va savollar orqali bolalar nafaqat tilqoidalarini bilib oladilar, balki hayvonlar haqida ilmiy bilimlarga ega bo‘ladilar, kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Shunday qilib, ona tilini o‘rgatishda kontekstual yondashuv qo‘llanilganda, o‘quvchilar nafaqat tilni o‘rganadilar, balki real hayotiy vaziyatlarda uni qo‘llashni ham o‘zlashtiradilar. Bu esa ularning o‘qib tushunish, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Juft so‘zlar — ikki mustaqil so‘zning o‘zaro ma’no va shakl jihatdan bog‘lanib, bir butun ma’no anglatishi natijasida hosil bo‘lgan qo‘shma birlikdir. Ular nutqda bitta tushuncha sifatida qo‘llanadi va ko‘pincha umumlashtirish, jamlik, kuchaytirish yoki takror ma’nolarini ifodalaydi.

O‘zbek tilshunosligida juft so‘zlar qo‘shma so‘zlarning bir turi sifatida qaraladi va ular tarkibidagi qismlar teng huquqli bo‘ladi. Juft so‘zlarning tarkibidagi har ikki so‘z alohida ma’noga ega bo‘lsa-da, birikkan holda yangi yoki kengaygan ma’no hosil qiladi.

Juft so‘zlar boshlang‘ich sinf darsliklarida ko‘proq nutqni boyituvchi vosita sifatida talqin etiladi. O‘quvchilarga ular yordamida predmetning ko‘pligi, davomiyligi, kuchaytirilgan belgisi yoki umumlashtirilgan ma’nosi ifodalanishi ko‘rsatib beriladi. Masalan, *ota-ona*, *aka-uka*, *katta-kichik* kabi juft so‘zlar orqali umumiylik va jamlik ma’nosi yuzaga chiqishi o‘quvchilarga misollar asosida anglatiladi. Shu bilan birga, takroriy shakldagi juft so‘zlar yordamida harakatning davomiyligi yoki belgining kuchayishi ifodalanishi tushuntiriladi.

Boshlang‘ich sinf “Ona tili” darsliklarida juft so‘zlarning imlosiga ham alohida e’tibor beriladi. Ularning yozilishidagi chiziqcha qo‘llanishi, ayrim hollarda qo‘shib yozilishi yoki ajratib yozilishiga doir boshlang‘ich ko‘nikmalar shakllantiriladi. O‘quvchilarga juft so‘zlarning yozilishida bir xillikni saqlash, ularni to‘g‘ri talaffuz qilish va yozma nutqda xatosiz qo‘llash o‘rgatiladi. Bu jarayonda ko‘proq amaliy mashq va takrorlash usullaridan foydalaniladi.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida juft so‘zlar bilan ishlash jarayoni o‘quvchilarda quyidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi:

-Ma’no jihatidan farqlash: o‘quvchilar qarama-qarshi ma’nodagi so‘zlarni (*katta-kichik*, *issiq-sovuq*, *yaxshi-yomon*), yaqin ma’noli so‘zlarni (*do‘st-birodar*,

qo'ni-qo'shni) va takroriy ifodalarni (*asta-sekin, tez-tez, qator-qator*) aniqlashni o'rganadilar.

-Yozilish qoidalarini o'rganish: juft so'zlarning chiziqcha bilan yozilishi, alohida yoki birlashtirilgan shakllarda ko'rinishini tushunadilar, bu esa ularning yozma nutqini yanada to'g'ri va ravon qiladi.

-Nutqda qo'llash: o'quvchilar juft so'zlarni gap ichida to'g'ri ishlatishni o'rganadilar, bu esa ular nutqining aniq va boy bo'lishiga yordam beradi.

-Ma'no uyg'unligini anglash: juft so'zlar bir-birini mustahkamlash orqali ma'no birliklarini hosil qiladi, o'quvchilar bu orqali matnni to'g'ri tushunish va ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Juft so'zlar ikki mustaqil yoki bir-biriga yaqin ma'noli so'zlarning o'zaro teng bog'lanishi orqali hosil bo'ladi. Ular bir butun leksik birlik sifatida qo'llanib, gapda bitta so'roqga javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Masalan, *ota-ona, do'st-birodar, katta-kichik, kecha-kunduz, yaxshi-yomon* kabi birliklar matnlarda tez-tez uchraydi. Ushbu birliklar morfologik jihatdan tahlil qilinganda, ular tarkibidagi har bir komponent alohida so'z turkumiga mansub bo'lsa-da, birgalikda yagona grammatik shaklni ifodalaydi.

Boshlang'ich sinf matnlarida juft so'zlarning qo'llanilishi o'quvchilarda umumlantirish, qiyoslash va qarama-qarshilik tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Morfologik jihatdan esa ular o'quvchilarga so'z tarkibini, qo'shimchalarning qo'llanish o'rnini va grammatik shakllarning bir butun birlikka taalluqliligini anglash imkonini beradi. Ayniqsa, kelishik va egalik qo'shimchalarining juft so'zlarga qo'shilish jarayonini o'rgatish orqali o'quvchilarda morfologik tahlil ko'nikmasi rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Quronov M., Mavlonova R., Ro'ziyeva D. va boshqalar. Boshlang'ich ta'limda leksik va grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilmiy-metodik tadqiqotlar. – Toshkent

2. Aliyev M., Abrorov M., Xolboyeva G.A., Toshtemirov U. O'zbek tili leksikasi va juft so'zlarning nutq madaniyatidagi o'rnini bo'yicha tadqiqotlar.

3. Hozirgi o'zbek adabiy tili / A. Nurmonov, N. Mahmudov, A. Sobirov. – Toshkent: Ilm Ziyos, 2012.

4 N.B.ADIZOVA, R.X.JUMAYEV, R.A.QO'LDOSHEV, S.R.ISMATOV „ Ona tili o'qitish metodikasi“. Buxoro-2020